**Bajarilishi ikki yilga mo‘ljallangan amaliy loyihalar mavzusi**

| “Pedagogika va psixologiya fanlari” yo‘nalishi | | |
|---|---|---|
| **№** | **Amaliy loyiha mavzusi** | **Loyiha bajarilishidan kutilayotgan natija** |
| | Oliy ta’limda tahsil olayotgan imkoniyati cheklangan talabalarning adaptiv sport turlari bo‘yicha jismoniy tayyorgarlik darajasini aniqlashning zamonaviy parametrlarini va pedagogik texnologiyalarini ishlab chiqish<br><br> | **Tadqiqotning shakli:** Amaliy.<br>**Ilmiy-tadqiqot natijalari:**<br>- sportchilarni musobaqalarga psixologik tayyorlash, psixologik holati to‘g‘risida umumlashtirilgan, tizimlashtirilgan bilimlar shakllantiriladi;<br>- para sportchilarni texnik elementlarni o‘zlashtirishda biomexanik ko‘rsatkichlaridan kelib chiqib sport mashg‘ulotlariga tayyorlash monitoringi uchun kompyuter dasturi ishlab chiqiladi;<br>- mashg‘ulot faoliyatini takomillashtirishga xizmat qiluvchi model-ko‘rsatgichlarning model-harakatlari yaratilib bevosita sportchilarni mashg‘ulotlariga tatbiq qilish tizimi yo‘lga qo‘yiladi;<br>- para sportchilarni texnik elementlarni o‘zlashtirishda biomexanik ko‘rsatkichlaridan kelib chiqib jismoniy tayyorgarligini oshiruvchi texnik harakat zaxiralarini aniqlovchi testlar klasifikatsiyasi ishlab chiqiladi;<br>- imkoniyat cheklangan talabalarning adaptiv sport turlari bo‘yicha jismoniy tayyorgarlik darajasini aniqlashning zamonaviy parametrlarini uchun kinematik tavsiflari bo‘yicha saralash tizimini ishlab chiqiladi.<br>**Natijalarni sinovdan o‘tkazish:** Tadqiqot natijalari Sport vazirligi tasarrufidagi tashkilotlarda sinovlardan o‘tkaziladi.<br>**Ilmiy natijalarni chop etish:** Tadqiqot natijalariga intellektual mulk obyektlari uchun tegishli hujjatlar olinadi. Nufuzli ilmiy jurnallarda va Web of Science hamda Scopus ma’lumotlar bazasida indeksatsiyalangan jurnallarda ilmiy maqolalar chop etiladi.<br>**Izoh**: Ushbu mavzuga taqdim etiladigan ilmiy loyihalar Sport vazirligining qo‘llab-quvvatlash xati mavjud bo‘lganida qabul qilinadi. |